

## **O'ZBEKISTONDA SUV RESURSLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINI TAHLILI VA SAMARADORLIGI.**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi Magistranti*

*Allabergenov Muhammadali Ruslanbek o'g'li*

**Annotasiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda suv resurslaridan samarali foydalanishda soliq tizimining ta'sirchanligini yanada oshirishga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari soliqqa tortish maqsadida tabiiy boyliklarni iqtisodiy jihatdan guruhlash va ularning xususiyatlarini ko'rsatib berish, tabiiy boyliklarni soliqqa tortishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini nazariy tahlil qilish, tabiiy boyliklarni soliqqa tortishning xorij tjribasini qiyosiy jiahtadan tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini yortib berish.

**Kalit so'zlar:** resurs solig'i, nedra solig'i, byudjet, soliq ma'murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o'rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi. konlar, xorijiy investorlar.

### **Kirish.**

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy vazifalaridan biri geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish orqali yuqori darajada qo'shimcha qiymat yaratishdan iborat. Respublikamiz soliq tizimida suvdan ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilgan suv resurslari soliq ob'yetti sifatida belgilagan. Buning zarurligi shundaki, garchi suv resurslari tabiiy tiklanadigan resurs hisoblansada, Resspublikamizning suv resurslari tanqis bo'lgan hududda joylashganligi va chuchuk suv miqdorlarining umumiy suv fondi hajmidagi ulushining butun dunyo bo'yicha darajasi 2-3 foiz atrofidaligi bu kabi tabiiy resurslardan undan foydalanuvchilarning ma'suliyatini oshirishning moliyaviy

mexanizmlaridan biri bu soliq mexanizmlari hisoblanadi. Soliq islohotlari doirasida resurs soliqlari, jumladan suv solig'i ma'murchiliginin ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida, 2020 yildan qishloq xo'jaligi korxonalari ham suv solig'i to'loviga o'tkazilganligi natijasida soliq to'lovchilar soni oxirgi 4 yilda 137,3 mingtaga yetib, 40 baravarga oshdi. Bundan tashqari, soliq hisobotlari soddalashtirilib, hisobot shakllari 7 tadan 2 taga kamaytirildi hamda har bir faoliyat turi bo'yicha alohida soliq stavkalari belgilanishi soliq to'lovchilar tomonidan ijobiy qabul qilindi. Bu o'z navbatida ushbu soliqdan byudjetga tushumlarning tushishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, 2021 yilda jami 684,4 mlrd.so'm tushum ta'minlanib, 2018 yilga nisbatan 5,3 baravarga o'sdi.



### 1-rasm. Suv resurslari tasnifi<sup>1</sup>.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra suv resurslarini joylashishiga, ma'muriy-hududiy o'rniiga ko'ra hamda xalqaro bitimlarga asosan tasniflanadi. Respublikamizda asosiy suv resurslari manbalarini daryolarning suv resurslari tashkil qiladi. Buni Respublikamiz hududidan oqib o'tadigan daryolar kesimida ko'radigan bo'lsak, ularning suv hajmi

<sup>1</sup> Ҳикматов Ф.Х. Орол ҳавзаси сув ресурслари, улардан самарали фойдаланиш, муҳофаза қилиш масалалари. Тошкент – 2009. ЎзМУ. Электрон ресурс.

quyidagichadir: Keltirilgan jadvaldan ko‘rinadiki, Respublikamiz hududidan oqib o‘tadigan Amudaryo va Sirdaryoning umumiy yillik suv hajmi 3571 mln. kub.m.ni tashkil qiladi. Respublikamizda ishlab chiqarish maqsadlarida iste’mol etiladigan suv resurslarining hajmi ushbu suv manbalarga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to‘g‘risida Milliy ma’ruzada keltirilishicha, Respublikamizda jami iste’mol etiladigan suv resurslarining 92 foizidan ko‘prog‘i qishloq xo‘jaligida, 5,5 foizi maishiy sohada, 0,2 foizi energetika sohasida, 0,8 foizi baliqchilik va 1,5 foizi esa sanoat tarmoqlarida iste’mol qilinmoqda.

### **1-jadval.**

#### **O‘zbekistonda daryo suv resurslari<sup>2</sup>**

Havza	O‘rtacha ko‘p yillik suv hajmi	Yillik oqimi xajmi m <sup>3</sup>		
		O‘rtacha	Eng katta	Eng kichik
Amudaryo	2334	73,61	100,8	55,1
Sirdaryo	1237	39,01	72,7	20,4
Jami	3571	112,62	173,5	75,5

Respublikamizda 2017 yildan boshlab keng qamrovli islohotlar yo‘nalishida suv resurslaridan foydalanish va uni soliqqa tortish borasidagi taktik yo‘nalishlarda aynan suv resurslaridan samarali foydalanish, uni amalga oshirishning muhim vositalari belgilab berildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 maydag‘i “2017 — 2021 yillarda yer osti suvlari zaxiralardan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2954-sonli qarorini alohida keltirib o‘tish mumkin. Mazkur qarorda ko‘rsatib o‘tilganidek, “Hozirgi paytda 69 ta shahar, 335 ta posyolka va 2 902 ta qishloq aholi punktlari aholisining ehtiyojlari yer osti suvlari zaxiralari hisobiga qondirilmoqda. Shu bilan birga, oxirgi 40 — 50 yilda

<sup>2</sup> Манба: Ҳикматов Ф.Х. Орол ҳавзаси сув ресурслари, улардан самарали фойдаланиш, муҳофаза қилиш масалалари. Тошкент – 2009. ЎзМУ. Электрон ресурс.

sanoat va qishloq xo‘jaligining jadal rivojlanishi chuchuk yer osti suvlari holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi, yer osti suvlarini hisobga olish va ulardan foydalanish yuzasidan zarur nazoratning mavjud emasligi oqibatida 59 foiz yer osti suvlari belgilangan tartibda tasdiqlanmagan zaxiralardan olinmoqda”<sup>3</sup>

### 3-jadval.

#### O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash maqsadida yer usti va yer osti suvlarining foizli nisbati<sup>4</sup>

Nº	Soliq to‘lovchilar	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
1.	<b>JAMI</b>	<b>100</b>						
2.	Yer usti manbalari	93,3	89,2	91,1	92,8	90,7	95,1	94,2
3.	Yer osti manbalari	6,7	10,8	8,9	7,2	9,3	4,9	5,8

Ushbu keltirilgan javdaldan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash maqsadida yer usti va yer osti suvlarining foizli nisbatida yer ustidan olinadigan suv manbalari katta ulushni, ya’ni o‘rtacha 90-94 foizni tashkil etgan holda, o‘z navbatida ushbu soliq turi bo‘yicha soliq tushumlarining katta qismini yer usti suv manbalaridan foydalanadigan soliq to‘lovchilar hissasiga to‘g‘ri keladi. Agar, buni biz soliq to‘lovchilar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak quyidagi natijalarni ko‘rishimiz mumkin.

#### Xulosa va takliflar.

Mavzu bo‘yicha o‘rganishlar asosida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Suv iste’molchilari tomonidan foydalaniłgan suv hajmi to‘g‘risida iste’molchilar kesimidagi ma’lumotlarning haqqoniyligini ta’minlash maqsadida suv inshootlariga

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 4 майдаги “2017 — 2021 йилларда ер ости сувлари захираларидан оқилона фойдаланишни назорат қилиш ва хисобга олишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-2954-сонли қарор

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат солик қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф хисоб-китоби

ilg‘or jahon standartlari asosida ishlovchi suvni o‘lchash va boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali suv resurslaridan foydalangalik uchun soliqni optimal undirish mexanizmlari ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### **Adabiyotlar**

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).